

Leytmotiv Terminining Etimologik Va Semantik Tahlili (O'zbek, Rus Va Nemischa Lug'atlar Asosida)

*Sabirov Asror Abdullayevich*¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada “leytmotiv” terminining o'zbek tiliga o'zlashish jarayoni hamda semantik jihatdan rus va nemis tillaridagi o'xshashlik va tafovutlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yetakchi sabab, motiv, mavzu, asosiy maqsad, o'ziga xoslik, garmonik yoki ohangdor ibora, opera qahramoni.

Oldin chop qilingan maqolalarimizdagi terminlar kabi mazkur maqolamizda ham yana bitta “leytmotiv” termini tahlil qilishga qaror qildik, chunki ushbu terminning manba tili nemis tili bo'lib, shakl va ma'no xususiyatlarini boshqa o'zlashmalarga qaraganda ancha yaxshiroq saqlagan.

Abdulahob Madvaliyev tahriri ostidagi “O'zbek tilining besh jildli izohli lug'ati” da tahlilga tortilgan “leytmotiv” termini “Leytmotiv [nem. Leitmotiv – asosiy, yetakchi sabab, motiv] 1. Musiqali asarda boshdan oxirigacha takrorlanadigan kuy, mavzu. 2. ko'chma. Qayta-qayta takrorlanib ta'kidlanadigan asosiy fikr, asosiy maqsad.”² – o'zbek tiliga bevosita nemis tilidagi “Leitmotiv – asosiy, yetakchi sabab, motiv” so'zidan o'zlashganligini hamda semantik jihatdan ikkita als va ko'chma ma'nolarini ko'rishimiz mumkin.

Filologiya fanlari doktori, professor N.Mahmudov tahriri ostida, Abdulahob Madvaliyev, Ne'mat Mahkamov, Shuhrat Ko'chimov, Zuhra Mirahmedova, Akmalxo'ja Saidno'monovlarning “**Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati**” da esa: “LEYTMOTIV [nem. Leitmotiv - asosiy, yetakchi sabab] Qayta-qayta takrorlanib ta'kidlanadigan asosiy fikr, asosiy maqsad.”³ Mazkur lug'atda ham Abdulahob Madvaliyev tahriri ostidagi izohli lug'atidagidek tahlilga tortilgan termin etimologik jihatdan bir hil, ya'ni nemis tilidagi “Leitmotiv” so'zidan bevosita o'zlashganligi keltirib o'tilgan, ammo uning “musiqali asarda boshdan oxirigacha takrorlanadigan kuy, mavzu” ma'nosi ko'rsatilmagan.

С. А. Кузнецовning izohli lug'atida “orden” so'zi “ЛЕЙТМОТИВ, -а; м. [нем. Leitmotiv]. 1. Муз. Гармонический или мелодический оборот, повторяющийся в музыкальном произведении в качестве характеристики или условного обозначения персонажа, предмета, явления, идеи и т.п. Л. симфонии. В оркестре звучит л. героя оперы. 2. Основная мысль, неоднократно повторяемая и подчёркиваемая. Л. книги. Л. творчества писателя. || Основное положение, определяющее что-л., служащее руководящим началом чего-л. Лейтмотивом отношений между людьми должна быть доброта. Л. поведения.”⁴ Mazkur izohli lug'atda “leytmotiv” termini rus tiliga ham nemischa “Leitmotiv” so'zidan bevosita o'zlashganligining guvohi bo'lamiz. Semantik jihatdan yuqorida sanab o'tilgan o'zbek tilidagi lug'atlar bilan deyarli bir hil, biroq misollar bilan ancha yaxshi ifodalangan

¹ Ma'mun nomidagi jahon tillari NTM Roman – german Filologiyasi kafedrasini nemis tili fani o'qituvchisi, 10.00.06- “Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik“ ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchi

² Abdulahob Madvaliyev tahriri ostidagi “O'zbek tilining besh jildli izohli lug'ati”. “O'zbekiston nashriyoti”, Tuzatilgan 2-nashri. Toshkent – 2020. 2-jild, 494-B.

³ Abdulahob Madvaliyev, Ne'mat Mahkamov, Shuhrat Ko'chimov, Zuhra Mirahmedova, Akmalxo'ja Saidno'monov, „Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati“, Filologiya fanlari doktori, professor N.Mahmudov tahriri ostida. SANHOF, 2021. 135-B.

⁴ С. А. Кузнецов, “большой толковый словарь русского языка”. Санкт -Петербург «НОРИНТ» 2000. 492-С



“1. Musiqa. Musiqa asarida belgi, predmet, hodisa, g’oya va boshqalarning o’ziga xos xususiyati yoki ramzi sifatida takrorlanadigan garmonik yoki ohangdor ibora. Simfoniyaning leytmotivi. Orkestr leytmotivni ijro etadi. Opera qahramoni. 2. Qayta-qayta takrorlangan va ta’kidlangan asosiy fikr. Kitobning leytmotivi. Yozuvchi ijodining leytmotivi. || Biror narsani belgilaydigan, nimaningdir bosh printsipli bo’lib xizmat qiladigan asosiy pozitsiya. Odamlar o’rtasidagi munosabatlarning leytmotivi mehribonlik bo’lishi kerak. Xulq-atvor leytmotivi.”

A.K. Шапошниковning etimologik lug’atida esa, “leytmotiv” termini haqida hech qanday ma’lumotlar berilmagan.

Yusuf Ismoilov, Shavkat Karimovlar hamda Zamirjon Butayevlarning “Nemischa-o’zbekcha, o’zbekcha-nemischa” lug’atlarida ham tahlilga tortilgan so’z haqida biror bir manba uchratmadik.

“Langenscheidt” lug’atida „**Leit-mo-tiv** [-f] das 1. MUS; eine Melodie, die in einem musikalischen Werk (z. B. einer Oper) immer dann gespielt wird, wenn dieselbe Person oder die gleiche Situation vorkommt 2. LIT; eine Idee, ein Ausdruck oder eine Handlung, die in einem Roman, einem Drama oder einem Gedicht immer wieder vorkommen und charakteristisch für das ganze Werk sind.“⁵ - “Leytmotiv” termining kelib chiqishi haqida hech qanday ma’lumot berilmagan, faqatgina uning quyidagi ma’nolari keltirilgan “1. MUS; musiqiy asarda (masalan, operada) bir xil shaxs yoki bir xil vaziyat yuzaga kelganda yangraydigan kuy 2. LIT; roman, drama yoki she’rda qayta-qayta sodir bo’ladigan va butun asarga xos bo’lgan fikr, ifoda yoki harakat“.

Shu o’rinda mazkur so’zning elektron manbalardagi izohlarini ham tahlilga tortishni ma’lum va muayyan ma’noda o’rinli deb topdik. Masalan “Duden“ lug’atida tahlilga tortilgan terminning quyidagi ma’lumotlarini uchratish mumkin “ **Bedeutungen** (ma’nolari): "1. leitendes, bewegendes Motiv, Leitgedanke - yo’naltiruvchi, harakatlanuvchi motiv, asosiy fikr; asosiy g’oya; 2. a) häufig wiederkehrendes charakteristisches Motiv mit fester Zuordnung zu einer bestimmten (auftretenden oder vorgestellten) Person, Situation, Stimmung usw. (besonders in Opern, sinfonischen Dichtungen o. Ä.) - *Tez-tez takrorlanadigan xarakterli motiv aniq (ijro etayotgan yoki tasavvur qilingan) shaxs, vaziyat, kayfiyat va boshqalar (ayniqsa, operalar, simfonik she’rlar va boshqalar) bilan qattiq bog’langan;* b) häufig wiederkehrende, einprägsame Formulierung, Aussage, die in der Art eines musikalischen Leitmotivs fest mit einer bestimmten Person, Sache, Situation, Stimmung usw. verbunden ist - *Tez-tez takrorlanadigan, esda qolarli shakllantirish, musiqiy leytmotiv tarzida muayyan shaxs, narsa, holat, kayfiyat va boshqalar bilan mustahkam bog’langan gap.* **Beispiele** (misollar): "ein Leitmotiv ihres Denkens, Schaffens - *ularning tafakkuri va faoliyatining leytmotividir.*“⁶

“Duden“ elektron lug’atida “kapital“ so’ziga doir ko’proq ma’lumot berilganligiga guvoh bo’lish mumkin. Jumladan, “**Worttrennung** (bo’g’in ajralishi): **Leit|mo|tiv**, **Synonyme** (sinonimlari): Leitgedanke, Motiv - *Asosiy g’oya, motiv, asos;* **Grammatik** (gramatikasi):⁷

Guvohi bo’lganingizdek duden onlayn lug’atida boshqa lug’atlarga qaraganda ayniqsa, lingvistik ma’lumotlar to’liq va aniqroq berilgan

“Leytmotiv” so’zining tadqiqot qilinayotgan tillarga o’zlashish jarayonini kuzatadigan bo’lsak, asl manba tili nemischa “Leytmotiv” so’zidan rus tiliga “лейтмотив” o’zbek tiliga “leytmotiv“ shakillaridagi qisman imlo va fonetik o’zgarishlar bilan o’zlashgan. Ushbu so’zning etimologik va semantik xususiyatlari haqida gapirilsa, yuqorida sanab o’tilgan lug’atlarda deyarli bir hil, ba’zi lug’atlarda esa, tahlilga tortilgan mazkur termin keltirilmagan.

⁵ Langenscheidt. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Langenscheidt KG, Berlin und München, 2008, 685 S.

⁶ <https://www.duden.de/rechtschreibung/Leitmotiv>

⁷ → Zur Deklinationstabelle des Substantivs *Leitmotiv*



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. А.К. Шапошников, этимологический словарь современного русского языка, Издательство «Флинта», Издательство «Наука», Москва – 2010.
2. Abduvahob Madvaliyev, Ne'mat Mahkamov, Shuhrat Ko'chimov, Zuhra Mirahmedova, Akmalxo'ja Saidno'monov, "ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati", Filologiya fanlari doktori, professor N.Mahmudov tahriri ostida. SAHHOF, 2021.
3. Abduvahob Madvaliyev tahriri ostidagi "O'zbek tilining besh jildli izohli lug'ati". "O'zbekiston nashriyoti", Tuzatilgan 2-nashri. Toshkent – 2020.
4. <https://www.duden.de/>
5. Langenscheidt. Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. Langenscheidt KG, Berlin und München, 2008, 799 S.
6. С. А. Кузнецов, "большой толковый словарь русского языка". Санкт -Петербург «НОРИНТ» 2000. 724-с
7. Yusuf Ismoilov, Shavkat Karimov, "Nemischa-o'zbekcha, o'zbekcha-nemischa". 2-nashr; Toshkent ,Akademiknashr, 2019.
8. Zamirjon Butayev, Yusuf Ismoilov, Shavkat Karimov, "Nemischa-o'zbekcha, o'zbekcha-nemischa". Toshkent – 2020.

